



O'ZBEKISTONDA RAQAMLI BANK XIZMATLARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF DIGITAL BANKING SERVICES IN UZBEKISTAN

¹Haydarov O'ral
Axmadovich

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
v.b., professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Ushbu maqolada raqamli bank xizmatlarining mohiyati, ularning iqtisodiy ahamiyati hamda bank tizimida shakllanish va rivojlanish bosqichlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil etilgan. Tadqiqot doirasida raqamli transformatsiya sharoitida bank xizmatlarini ko'rsatishning an'anaviy shakllaridan raqamli platformalarga bosqichma-bosqich o'tish jarayoni tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada masofaviy bank xizmatlari, mobil va internet-banking tizimlarining rivojlanish tendensiyalari hamda ularning bank faoliyati samaradorligiga ta'siri ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan yoritilgan.

Eng. - This article provides a scientific-theoretical and practical analysis of the essence of digital banking services, their economic significance, and the stages of their formation and development within the banking system. Within the scope of the study, the process of a gradual transition from traditional forms of banking service delivery to digital platforms under conditions of digital transformation is examined. In addition, the article explores the development trends of remote banking services, mobile banking, and internet banking systems, as well as their impact on the efficiency of banking operations from both theoretical and practical perspectives.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ raqamli bank xizmatlari, raqamli transformatsiya, bank tizimi, masofaviy bank xizmatlari, mobil banking, internet-banking, moliyaviy texnologiyalar (FinTech), moliyaviy inklyuziya, bank raqobatbardoshligi, bank daromadlari.

❖ digital banking services, digital transformation, banking system, remote banking services, mobile banking, internet banking, financial technologies (FinTech), financial inclusion, bank competitiveness, bank revenues.

Kirish.

Jahon miqyosida raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi bank tizimida raqamli bank xizmatlarini joriy etish va kengaytirishni strategik zaruratga aylantirmoqda. 2025-yil boshiga kelib, dunyo aholisining qariyb 68,7 foizi internetdan faol foydalanayotgani raqamli texnologiyalarning iqtisodiy va moliyaviy munosabatlardagi ahamiyati tobora ortib borayotganini ko'rsatadi. Zamonaviy raqamli bank platformalari orqali amalga

oshirilayotgan moliyaviy operatsiyalar hajmi yildan-yilga oshib borayotgani raqamli bank xizmatlarining global moliyaviy tizimdagi o'rni va salohiyati tobora kuchayib borayotganini yaqqol namoyon etadi [1].

Mazkur global tendensiyalar O'zbekiston tijorat banklari faoliyatiga ham bevosita ta'sir ko'rsatib, raqamli bank xizmatlarini joriy etish va ularni rivojlantirish masalasini dolzarb vazifaga aylantirmoqda. So'nggi yillarda mamlakat bank tizimida mobil banking,

internet-banking va masofaviy to'lov xizmatlarining ko'lamlari kengayib borayotganiga qaramasdan, ularning rivojlanish darajasi rivojlangan davlatlar tajribasi bilan qiyoslanganda hali to'liq mukammal va barqaror tizim sifatida shakllanmagan.

Raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklari uchun raqamli texnologiyalarni joriy etish oddiy texnologik yangilanish emas, balki bank faoliyatining samaradorligi, raqobatbardoshligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi muhim strategik omil hisoblanadi. Sun'iy intellekt, "big data" tahlili, blokcheyn va raqamli identifikatsiya tizimlarining bank amaliyotiga tatbiq etilishi xizmatlar sifatini oshirish, mijozlarga yo'naltirilgan bank xizmatlarini joriy etish hamda operatsion xarajatlarni optimallashtirish imkonini bermogda. Shu bilan birga, fintech kompaniyalari faoliyatining kengayishi banklar o'rtasidagi raqobatni kuchaytirib, raqamli bank xizmatlarini jadal rivojlantirishni taqozo etmogda.

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston tijorat banklarida raqamli bank xizmatlarini joriy etishni rivojlantirish, raqamli infratuzilmani takomillashtirish hamda innovatsion texnologiyalarni bosqichma-bosqich tatbiq etish bank tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilish va ularni takomillashtirish yo'llarini ishlab chiqish ushbu tadqiqotning asosiy maqsadini tashkil etadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mavzuni o'rganish davomida umumiy iqtisodiy usullar bilan bir qatorda tizimli tahlil, umumlashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash, statistik usullaridan foydalanilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Ilmiy tadqiqotlarda qayd etilishicha, raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi bank xizmatlari bozorining tarkibiy tuzilmasini o'zgartirib, xizmatlar ko'rsatishning yangi

innovatsion shakllarini vujudga keltiradi. Elektron va masofaviy bank xizmatlarining kengayishi banklarning operatsion xarajatlarini kamaytirish, xizmatlar tezkorligi va qulayligini oshirish hamda moliyaviy inklyuziyani ta'minlashga xizmat qiladi. Bu holat rivojlanayotgan mamlakatlar bank tizimi uchun ayniqsa dolzarb hisoblanadi.

Bank xizmatlarini raqamlashtirish bilan bog'liq risklar va ularni boshqarish masalalari xalqaro moliyaviy institutlar tadqiqotlarida ham alohida o'rin egallaydi. Xususan, Xalqaro hisob-kitoblar banki huzuridagi Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan "Cross-Border Electronic Banking Issues for Bank Supervisors" hisobotlarida elektron bank xizmatlarini rivojlantirishda prudensial nazorat, axborot xavfsizligi va transchegaraviy tartibga solish mexanizmlarining ahamiyati yoritilgan [2]. Ushbu yondashuvlar O'zbekiston bank tizimida raqamli xizmatlarni joriy etishda normativ-huquqiy bazani takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Mazkur masalalar Xalqaro valyuta jamg'armasi hamda G10 guruhi tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda ham o'z aksini topgan bo'lib, ularda raqamli bank xizmatlari moliyaviy barqarorlik va bank tizimi samaradorligini oshiruvchi muhim omil sifatida baholanadi [3]. Tadqiqot natijalariga ko'ra, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining bank faoliyatiga keng joriy etilishi moliyaviy xizmatlar qamrovini kengaytirish, tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish va iqtisodiy faollikni rag'batlantirishga xizmat qiladi [4].

Masofaviy bank xizmatlari tushunchasi va ularning rivojlanish bosqichlari ko'plab ilmiy ishlarda tahlil qilingan. Ilmiy manbalarda masofaviy bank xizmatlarining shakllanishi bankomatlar, telefon-banking, internet-banking va mobil-banking texnologiyalarining rivoji bilan chambarchas bog'liq ekani qayd etiladi. Hozirgi bosqichda esa ushbu xizmatlar smartfonlar, raqamli platformalar va

ekotizimlar asosida yanada takomillashmoqda [5].

V.K. Spilnichenko masofaviy bank xizmatlarini mijozning bankka tashrif buyurmasdan, telekommunikatsiya tizimlari orqali hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish imkonini beruvchi axborot xizmatlari majmui sifatida ta'riflaydi [6]. Ushbu yondashuv O'zbekiston tijorat banklarida masofaviy xizmatlar ulushini oshirishning nazariy asoslarini belgilab beradi.

V.S. Aksenov fikriga ko'ra, elektron bank xizmatlari bu telekommunikatsiya vositalaridan foydalangan holda taqdim etiladigan moliyaviy xizmatlar to'plami hisoblanadi [7].

A.P. Bagaeva ta'kidlashicha, internet-banking bank omonatchilariga o'z hisobvaraqlari holati to'g'risidagi ma'lumotlarga masofadan turib kirish, shuningdek, Internet tarmog'i orqali turli bank operatsiyalarini amalga oshirish imkonini beruvchi zamonaviy masofaviy bank texnologiyasi hisoblanadi [8].

Z.K. Djafarova tadqiqotlarida elektron bank bu naqd pul, chek yoki boshqa turdagi qog'oz hujjatlarni almashtirish orqali emas, balki, elektron signallarni almashish orqali pul o'tkazmalarini amalga oshiradigan bank xizmatining shakli sifatida qayd etiladi [9].

V.E. Kosarev tadqiqotlarida neobanklar faoliyatiga alohida e'tibor qaratilib, neobank (yunoncha "yosh bank") har qanday smartfon va shaxsiy kompyuterlar orqali onlayn bank xizmatlarini ko'rsatuvchi, an'anaviy jismoniy filiallarsiz tashkil etilgan va faoliyat yurituvchi, raqamli texnologiyalar asosida modernizatsiya qilingan bank modeli sifatida talqin etiladi. [10].

O'zbek iqtisodchi olimlardan biri A.Sh. To'rayevning fikricha, bankning raqamli xizmatlari hisoblash texnikasi hamda telekommunikatsiya texnologiyalari vositasida ko'rsatiladigan bank xizmatlari majmuasini ifodalaydi [11]. Mazkur ilmiy yondashuvlarni umumlashtirgan holda xulosa qilish mumkinki,

O'zbekiston tijorat banklarida raqamli bank xizmatlarini joriy etish va ularni izchil rivojlantirish mijozlar ehtiyojlariga mos, raqamli texnologiyalar asosida yaratiladigan va doimiy ravishda takomillashtirib boriladigan innovatsion moliyaviy xizmatlar majmuasini shakllantirishni taqozo etadi. Xususan, mobil ilovalar orqali bank hisobvaraqlarini boshqarish, raqamli hamyonlardan foydalanish, onlayn kreditlash, masofaviy identifikatsiya tizimlari hamda avtomatlashtirilgan moliyaviy xizmatlarning keng joriy etilishi bank tizimining raqobatbardoshligini oshirish bilan birga, mamlakatda raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

So'nggi yillarda global moliya bozorlarida raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi bank xizmatlarini ko'rsatish va ulardan foydalanish mexanizmlarida tub sifati o'zgarishlarini yuzaga keltirmoqda. Internet texnologiyalari, mobil aloqa vositalari, sun'iy intellekt hamda katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash (Big Data) kabi zamonaviy raqamli texnologiyalarning bank amaliyotiga keng joriy etilishi an'anaviy bank xizmatlari modelining transformatsiyasiga olib kelmoqda. Natijada masofaviy, tezkor va mijozga yo'naltirilgan bank xizmatlari ulushi sezilarli darajada ortib, moliyaviy xizmatlar sifati va qulayligi oshmoqda. Mazkur jarayon O'zbekiston tijorat banklari faoliyatida ham muhim strategik ahamiyat kasb etib, bank tizimining raqobatbardoshligini oshirish, innovatsion rivojlanishini ta'minlash hamda mijozlar ehtiyojlariga moslashuvchan xizmatlar ko'rsatishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Raqamli bank xizmatlarining asosiy afzalliklari ularning doimiy ravishda takomillashib borishi, keng funksional imkoniyatlarga egaligi hamda mijozlarga real vaqt rejimida tezkor va qulay xizmatlar ko'rsatish imkoniyatlari bilan tavsiflanadi. Shu

munosabat bilan, tijorat banklarining barqaror va jadal rivojlanishini ta'minlash, shuningdek, mijozlar ehtiyojlariga mos innovatsion moliyaviy xizmatlarni yaratish maqsadida bank tizimida to'liq raqamli transformatsiyani amalga oshirish muhim strategik vazifa hisoblanadi.

Raqamli transformatsiya sharoitida bank innovatsiyalarini joriy etish banklararo raqamli muhitni shakllantiradi va mijozlar bilan uzluksiz hamkorlikni ta'minlaydi. Natijada raqamli bank ekotizimi vujudga kelib, u an'anaviy bank xizmatlari bilan bir qatorda moliyaviy loyihalash, investitsiya, sug'urta va fond bozori xizmatlarini ham qamrab oladi.

Prognozlarga ko'ra, 2030-yilga borib, tijorat banklarining global daromadlarining uchdan bir qismi bevosita raqamli bank ekotizimlari orqali shakllanishi kutilmoqda. Bu esa bank xizmatlari innovatsiyasini strategik rejalashtirish, raqamli xizmatlardan foydalanish samaradorligini oshirish va raqamli transformatsiyani bank biznes modelining ajralmas qismiga aylantirish zarurligini anglatadi. Shu bois tijorat banklarining raqamli xizmatlari tahlilini ko'rib chiqish bugungi kunda alohida ahamiyat kasb etadi.

Bank mahsulotlari, xizmatlar, marketing strategiyalari, mijozlarga xizmat ko'rsatish va operatsion jarayonlarning to'liq raqamli muhitga o'tishi moliya sohasining yangi bosqichga o'tayotganini anglatadi. Biroq, hozirgi kunda ko'plab an'anaviy banklar innovatsion yondashuvlardan yetarli darajada foydalanmayotganligi sababli mijozlar bazasining muhim qismini yo'qotish xavfiga duch kelmoqda. Ayniqsa, faqat chakana xizmatlarga tayanayotgan banklar, raqamli banklarning rivojlanishi va bozordagi raqobatning keskinlashuvi sababli, o'z daromadlarining 20-60 foizini yo'qotish xavfi ostidadir. Bu holat banklarning raqamli innovatsiyalarni joriy etish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Shu nuqtai nazardan, raqamli transformatsiya bank xizmatlari bozorida samarali faoliyat yuritishning asosiy omili sifatida namoyon bo'lmoqda. Yangi sharoitda tijorat banklari an'anaviy xizmat ko'rsatish modellari va mijozlar bilan ishlash strategiyalarini tubdan qayta ko'rib chiqishga majbur bo'lmoqda. Natijada, xizmat ko'rsatish sifati, tezligi va shaxsiylashtirilgan yondashuvlar orqali mijozlar bazasini kengaytirish imkoniyatlari oshmoqda.

1-jadval

O'zbekiston tijorat banklarida joriy etilgan raqamli bank xizmatlari turlari*

Bank nomi	Raqamli xizmat/xizmat nomi	Qisqacha tavsifi
Kapital Bank	Kapitalbank. Online mobil ilovasi	Hisob raqam yuritish, to'lovlar, kartani boshqarish, o'tkazmalar.
	Smart ATMLar	Pul yechish/kiritish, plastik kartasiz xizmatlar, to'lovlar.
	Uzum ekotizimiga integratsiya	E-commerce, BNPL, raqamli xizmatlar bilan birlashtirilgan bank ekotizimi.
	Onlayn to'lovlar (P2P, QR)	Kartadan kartaga, QR orqali va boshqa raqamli to'lovlar.
Hamkorbank	Hamkor Mobile ilovasi	Balans ko'rish, kartani boshqarish, to'lovlar, o'tkazmalar.
	VISA virtual kartasi	Onlayn xaridlar uchun mo'ljallangan virtual bank kartasi.
	Onlayn konversiya	Mobil ilovada valyuta ayirboshlash funksiyasi.
	Fintech loyihalar (Tezbank)	Neobank shaklidagi zamonaviy raqamli bank loyihasi.
Agrobank	Mobil ilova (Agrobank App)	Hisob yuritish, to'lovlar, o'tkazmalar, balans nazorati.
	Sberbank bilan xalqaro pul o'tkazmalari	Rossiyadan to'g'ridan-to'g'ri Agrobank kartalariga tezkor o'tkazmalar.
	PayMe orqali xizmat ko'rsatish	Agrobank kartalarini to'lov tizimlariga ulash, oson o'tkazmalar.
	Internet banking	Masofaviy hisob yuritish va nazorat tizimi; foydalanuvchi bazasi ortib bormoqda.

*Muallif tadqiqotlari natijasida tayyorlandi.

O'zbekistonda bank sektori faoliyatiga raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayonlari jadal sur'atlarda rivojlanib, masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar sonining barqaror o'sishi hamda elektron to'lov tizimlarining kengayib borishi bilan ifodalanmoqda.

Biroq, Global Digitalization Index ko'rsatkichlariga ko'ra, O'zbekiston "o'sib borayotgan" davlatlar toifasiga kiritilgan bo'lib, bu holat mamlakatda raqamli banklashuv jarayonlari hali dastlabki bosqichda ekanligini va mazkur yo'nalishda salmoqli rivojlanish

imkoniyatlari mavjudligini anglatadi. Shuningdek, alohida banklarning raqamli xizmatlari, kanal integratsiyasi, mijoz tajribasi, raqamli tranzaksiyalar soni va sifatini birlashtirgan ko'rsatkichlar yetarlicha tizimlashtirilmagan. Shuning uchun, "raqamli transformatsiya darajasi"ni baholashda hamda tahlil qilishda banklar o'z ichki indikatorlarini (masalan: mobil ilova foydalanuvchilari soni, onlayn tranzaksiyalar hajmi, avtomatlashtirilgan jarayonlar ulushi) hisobotlarda e'lon qilishi zarur.

2-jadval

Tijorat banklarining raqamli bank xizmatlaridan foydalanish darajasini baholash mezonlari*

Indikator nomi	Ko'rsatkich tavsifi	Baholash mezonlari (ball 0-5)
Mobil ilova foydalanuvchilari soni	Ilovadan aktiv foydalanuvchilar soni / umumiy mijozlar soniga nisbatan (%)	0-10%: 0; 11-30%: 1; 31-50%: 2; 51-70%: 3; >70%: 4;
Internet-bank faol foydalanuvchilari	Onlayn kiruvchi va operatsiya qiluvchi foydalanuvchilar ulushi	0-10%: 0; 11-30%: 1; 31-50%: 2; 51-70%: 3; >70%: 4;
Raqamli tranzaksiyalar ulushi (%)	Jami tranzaksiyalar ichida raqamli kanal orqali bajarilgan operatsiyalar ulushi	0-20%: 1; 21-40%: 2; 41-60%: 3; 61-80%: 4; >80%: 5.
Mobil ilova funksionalligi	Ilova orqali bajara oladigan xizmatlar soni (kredit, to'lov, valyuta ayirboshlash, investitsiya)	<5: 1; 5-8: 2; 9-12: 3; 13-16: 4; >16: 5.
Onlayn kreditlash ulushi (%)	Raqamli kanal orqali berilgan kreditlar ulushi (miqdor yoki son)	<5%: 1; 5-15%: 2; 16-30%: 3; 31-50%: 4; >50%: 5.
Raqamli xizmatlar soni	Mobil ilova, elektron karta, onlayn omonat, digital POS va hk	<3 dona: 1; 3-5 dona: 2; 6-8 dona: 3; 9-11 dona: 4; >11 dona: 5.
Innovatsion xizmatlar mavjudligi	AI, biometrik identifikatsiya, onlayn onboarding, chatbotlar	Har biri 1 ball, jami 5 gacha.

Foydalanuvchi tajribasi (UX/UI)	<i>Ilovaning dizayni, qulayligi, reytingi (App Store, Google Play)</i>	0-2: 1; 3: 2; 4: 4; 5+: 5.
Raqamli strategiya mavjudligi	<i>Bankda raqamli transformatsiya strategiyasi bor/yo'qligi</i>	Yo'q: 0; Yozma reja: 2; Amalda: 4; Jamoatchilikka ochiq: 5.
Kiberxavfsizlik darajasi	<i>Digital xizmatlar xavfsizligi (2FA, biometrik, shifrlash)</i>	0-2: 1; 3-4: 3; >4: 5.

*Muallif tadqiqotlari natijasida tayyorlandi.

Tijorat banklari faoliyatini yuqoridagi 2-jadval orqali har bir tijorat bankining raqamli rivojlanish darajasini 0 dan 50 ballgacha aniqlash mumkin. Shuningdek, natijalar asosida banklar o'z zaif tomonlarini aniqlab,

raqamli strategiyalarini qayta ko'rib chiqishlari mumkin. Raqobatbardosh banklar odatda yuqori ballga ega bo'ladi, bu ularning innovatsion salohiyatini ko'rsatadi.

3-jadval

Tijorat banklarida masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning soni*

№	Banklar	Yillar				
		2020	2021	2022	2023	2024
1	Milliy bank	1 230 581	2 053 208	1 519 509	1 753 740	2 423 522
2	Sanoatqurilish bank	1 645 817	2 418 832	4 751 000	6 089 469	6 304 818
3	Agrobank	2 217 049	3 089 320	4 257 528	5 623 165	5 927 887
4	Ipoteka-bank	1 387 421	1 908 623	2 313 413	3 055 397	3 794 645
5	Mikrokreditbank	727 056	762 523	908 990	1 081 210	1 216 691
6	Xalq banki	2 156 013	2 914 154	4 216 346	4 227 572	6 412 344
7	Biznesni rivojlantirish banki	298 038	377 533	410 299	279 345	335 600
8	Turonbank	210 350	261 182	330 163	530 858	528 779
9	Hamkorbank	975 668	1 291 270	1 296 933	1 716 331	2 080 902
10	Asaka bank	739 817	923 506	957 529	946 251	839 407
11	Ipak Yo'li banki	380 007	992 919	1 445 004	2 249 752	3 341 142
12	Ziraat bank Uzbekistan	17 626	58 540	43 613	61 658	79 586
13	Trustbank	137 297	190 421	249 033	198 024	353 811
14	Aloqabank	389 868	505 815	692 473	1 608 654	1 737 789
15	KDB Bank O'zbekiston	35 722	36 030	42 520	44 311	57 723
O'zbekistondagi tijorat banklari bo'yicha jami foydalanuvchilar soni		13 769 751	20 669 493	29 209 941	40 663 181	50 891 091

*<https://cbu.uz/uz/statistics/paysistem/2050989/> sayti ma'lumotlari orqali maullif tomonidan tuzildi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra mamlaktimizda masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni yildan-yilga ortib bormoqda. So'nggi 5 yilda umumiy foydalanuvchilar soni 13,7 milliondan 50,8 milliongacha yetib, 3,7 baravar o'sish kuzatilgan. Bu o'sish banklarning raqamli

xizmatlarni taklif etishdagi faol strategiyasi va aholi orasida raqamli xizmatlarga bo'lgan ishonch ortganini ko'rsatadi.

2020-2024-yillar davomida O'zbekiston tijorat banklari orasida Xalq banki, Agrobank, Sanoatqurilish bank, Ipak Yo'li banki hamda Ipoteka-bank masofaviy bank xizmatlari

bo'yicha eng yirik foydalanuvchilar bazasiga ega banklar sifatida shakllangan. Jumladan, 2020-yilda Xalq bankining masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 2,1 million nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 6,4 million nafarga yetib, uch baravardan ortiq o'sishni namoyon etgan. Agrobankda esa mazkur ko'rsatkich 2020-yildagi 2,2 million nafardan 2024-yilda 5,9 million nafargacha oshib, bankda barqaror va izchil raqamli rivojlanish jarayoni kuzatilayotganini ko'rsatadi.

Shuningdek, Ipak Yo'li bankida masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 2020-yilda 380 ming nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib 3,3 million nafarga yetib, qariyb 9 baravarga o'sgan. Mazkur holat bankning raqamli transformatsiya jarayonlariga faol moslashayotganini va innovatsion bank xizmatlarini joriy etishga alohida e'tibor qaratayotganini tasdiqlaydi.

Biroq ayrim tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlaridan foydalanish darajasi nisbatan past ko'rsatkichlarda saqlanib qolmoqda. Xususan, KDB Bank, Ziraat Bank hamda Biznesni rivojlantirish banklarida foydalanuvchilar soni boshqa tijorat banklariga nisbatan sezilarli darajada kam. Ushbu holat mazkur banklarning asosan xorijiy yoki yirik institutsional mijozlarga yo'naltirilganligi, shuningdek, raqamli bank xizmatlarini joriy etish sur'atlarining nisbatan pastligi bilan izohlanadi.

Jadval ma'lumotlari tahlilidan ko'rinadiki, 2020-2024-yillar davomida har yili o'rtacha 8 million nafardan ortiq yangi foydalanuvchi raqamli bank xizmatlariga ulangan. Bu esa O'zbekistonda raqamli bank mahsulotlaridan foydalanish darajasi izchil ortib borayotganini hamda aholining raqamli moliyaviy xizmatlarga bo'lgan talabi tobora kuchayib borayotganini anglatadi.

Yuqorida keltirilgan tahlillar orqali raqamli bank mahsulotlarini tijorat banklari faoliyatiga joriy etish mamlakatimizda bank tizimining samaradorligini oshirishda muhim

ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu jarayon bank xizmatlarining sifatini yaxshilash, operatsion xarajatlarni kamaytirish va mijozlarga xizmat ko'rsatish jarayonini optimallashtirishga xizmat qilmoqda.

Tijorat banklarida raqamli bank mahsulotlarini joriy etish va rivojlantirish samarali bo'lib, bu xizmatlardan foydalanayotgan mijozlar soni barqaror oshmoqda. Banklar o'z mijozlari uchun innovatsion, qulay va xavfsiz raqamli xizmatlar yaratishga intilmoqda, bu esa bank sektorining raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Kelajakda esa banklar raqamli xizmatlarni yanada takomillashtirish, kiberxavfsizlikni kuchaytirish va mijozlar ehtiyojlarini yanada to'liq qondirishga e'tibor qaratishi zarur.

Xulosa va takliflar.

O'tkazilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida raqamli bank xizmatlari tijorat banklari faoliyatining ajralmas va strategik tarkibiy qismiga aylanmoqda. Jahon miqyosida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, internet va mobil qurilmalardan foydalanish darajasining ortib borishi bank xizmatlarini ko'rsatishning an'anaviy shakllaridan masofaviy va raqamli platformalarga o'tishini jadallashtirmoqda. Ushbu jarayon O'zbekiston bank tizimida ham faol kechib, so'nggi yillarda mobil banking, internet-banking va boshqa masofaviy xizmatlardan foydalanuvchilar sonining keskin oshishi bilan ifodalanmoqda.

O'zbekistonda 2020-2024-yillar davomida masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni qariyb 3,7 baravarga oshgani aniqlanib, bu holat banklarning raqamli transformatsiyaga yo'naltirilgan strategiyasi hamda aholi va biznes subyektlarining raqamli moliyaviy xizmatlarga bo'lgan ishonchi ortib borayotganini ko'rsatadi. Xususan, Xalq banki, Agrobank, Sanoatqurilish bank, Ipoteka-bank va Ipak Yo'li banklarida raqamli xizmatlar jadal rivojlanib,

foydalanuvchilar bazasining barqaror o'sishi kuzatilmoqda.

Umuman olganda, raqamli bank mahsulotlarini joriy etish va rivojlantirish O'zbekiston bank tizimining operatsion samaradorligini oshirish, bank xizmatlari sifatini yaxshilash, moliyaviy inklyuziyani kengaytirish hamda banklarning raqobatbardoshligini kuchaytirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Tahlil natijalari asosida O'zbekiston tijorat banklarida raqamli bank xizmatlarini yanada rivojlantirish bo'yicha quyidagi amaliy va ilmiy takliflar ilgari suriladi:

Birinchidan, raqamli transformatsiya strategiyalarini takomillashtirish. Har bir tijorat bankida aniq maqsadlar, bosqichlar va indikatorlarni o'z ichiga olgan kompleks

raqamli transformatsiya strategiyasini ishlab chiqish va uni jamoatchilik uchun ochiq shaklda e'lon qilish maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchidan, raqamli xizmatlar samaradorligini baholash tizimini joriy etish. Tadqiqotda taklif etilgan mezonlar asosida (mobil ilova foydalanuvchilari, raqamli tranzaksiyalar ulushi, onlayn kreditlash hajmi va boshqalar) tijorat banklarining raqamli rivojlanish darajasini baholovchi yagona reyting tizimini shakllantirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, raqamli bank xizmatlarini tizimli va bosqichma-bosqich rivojlantirish O'zbekiston bank tizimining uzoq muddatli barqarorligi, innovatsion rivoji va global moliya bozoriga integratsiyalashuvini ta'minlovchi muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Global Internet Index. (2025). *World Digital Connectivity Report 2025*. Digital Intelligence Institute.
2. *Electronic Banking Group Initiatives and White Papers*. - Basel Committee for Banking Supervision. - Basel, October 2000. - 27 p.
3. <http://www.bis.org> – sayti ma'lumotlari asosida tayyorlangan.
4. Ramayah, T., (2005). Course website usage among distance learning business students: the role of prior experience. *International Journal of Learning* 11, 1507–1517.
5. Devlin, J.F. (1995), «Technology and innovation in retail banking distribution», *International Journal of Bank Marketing*, Vol. 13 No. 4, pp. 19-25.
6. Спильниченко В.К. Трансформация банковских платежных систем в экономике России // *Экономический журнал*. 2012. № 2 (26).
7. Аксенов В.С., Обухов В.В. Электронный банкинг в системе банковских услуг. *Экономический журнал*. 2016. № 2 (26)
8. Багаева А. П., Мусеенко А. А. Интернет-банкинг // *Актуальные проблемы авиации и космонавтики*. 2012.
9. Джафарова, З. К. Развитие электронных банковских продуктов и услуг в банковской сфере // *Финансовые инструменты регулирования социальноэкономического развития регионов: Сборник материалов V Всероссийской (национальной) научно-практической конференции, Махачкала, 2020*. – С. 63-69.
10. Косарев В.Е. О цифровой эволюции банков в направлении необанков // *Финансовые рынки и банки*. 2020. №3. <https://cyberleninka.ru/article/n/o-tsifrovoy-evolyutsii-bankov-v-napravleniineobankov>
11. A.Sh. To'rayev. *Tijorat banklarida raqamli bank xizmatlarini yaratish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish*. i.f.b.f., doktori dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent 2025.